# “SAXOVAT” MAHALLASIDA UCH AVLOD VAKILLARI BIRLASHDI




“SAXOVAT” MAHALLASIDA UCH AVLOD VAKILLARI BIRLASHDI

Bugun shahrimizdagi “Azizbek” tantanalar saroyida navbatdagi “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri boʻlib oʻtdi. Unda, mehnat faxriylari, turli sohalarda fidokorona mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor boʻlgan nuroniylar, diniy idora vakillari, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilari, davlat va jamoat tashkilotlari va faol yoshlar ishtirok etishdi.
Tadbirda soʻz olganlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida soʻnggi yillarda islohotlar shiddat bilan avj olgani, iqtisodiyotni erkinlashtirishda salmoqli natijalarga erishilgani, Oʻzbekiston dunyoga qayta bagʻrini ochganligi, qoʻshnilarimiz, rivojlangan davlatlar bilan yaqin doʻst boʻlganligimiz, ochiqlik siyosatiga dadil qadam tashlanganligi alohida taʼkidlandi.
Shuningdek, eng muhimi, xalqimiz farovon yashashi uchun hududlar infratuzilmasini yaxshilashga alohida eʼtibor qaratilayotganligi va amalga oshirilayotgan bunyodkorlik

ishlari natijasida, keyingi yillarda Termiz shahri yangicha qiyofa kasb etgani borasida fikrlar bildirildi.
amimiy muloqotda tinch va xotirjam hayotimiz, farovon kunlarimizga shukronalik tilga olindi. Bir piyola choy ustida davom etgan tadbirda san’atkorlarning qo‘shiqlari barchaga zavqu-shavq ulashdi.
Uch avlod vakillarini birlashtirgan ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Termiz shahar hokimi O‘ktam To‘rayev so‘zga chiqdi.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown